



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o‘rgatishga tayyorgarlik ishlarini yanada jadallashtirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son Farmonining 8-bandi ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman**:

1. Hududlarda yangi o‘quv yilidan boshlab umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o‘qitishga tayyorgarlik ishlari holati o‘rganilsin.

2. Quyidagilar:

har bir tuman (shahar)ning bittadan umumiy o‘rta ta’lim muassasasida o‘quvchilarni ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o‘qitishni tashkil etish borasida hududlarda olib borilayotgan ishlar holatini o‘rganish jadvali va ishchi guruhi tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalari faoliyatini o‘rganish bo‘yicha yo‘riqnoma 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ishchi guruh ushbu buyruqning 1-ilovasidagi jadvalga muvofiq hududlarga xizmat safariga yuborilsin.

4. Ishchi guruh (D.Ermatov)ga:

xizmat safari davomida ishchi guruh a‘zolari faoliyatini muvofiqlashtirish;

har bir tuman (shahar)da o‘quvchilarga ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o‘qitishni tashkil etish bo‘yicha taklif etilgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi mavjud holatlarni tahlil qilish;

xizmat safari natijalari bo‘yicha ma’lumotlarni umumlashtirib, vazirlik rahbariyatiga asoslantirilgan takliflarni taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

5. Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (Z.Togayeva) ushbu buyruqning 1-ilovasidagi jadvalga muvofiq ishchi guruh a‘zolarini xizmat safariga yuborilishi ta’minlansin.

6. Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limi (F.Jamuratova) vazirlik xodimlarining xizmat safari bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarini o‘rnatilgan tartibda to‘lab berish ishlarini amalga oshirsin.

7. Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari har bir tuman (shahar)da o‘quvchilarga ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o‘qitishni tashkil etish bo‘yicha taklif etilgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi mavjud holatlarni o‘rganish bo‘yicha zarur sharoitlarni yaratsin.

8. O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi (L.Gaynutdinova), “Barkamol avlod” Respublika bolalar maktabi (Y.Akbarov) ishchi guruh a’zolarini belgilangan muddatlarda xizmat safariga yuborilishini hamda xodimlarning xizmat safari bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarini tashkilot mablag‘lari hisobidan to‘lab berilishini ta’minlasin.

9. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari U.Begimkulov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



X.Umarova

Toshkent sh.,
2023-yil “20” -iyun,
173 -son

**Har bir tuman (shahar)ning bittadan umumiy o'rta ta'lim muassasasida o'quvchilarni
ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o'rgatishni tashkil etish borasida hududlarda
olib borilayotgan ishlar holatini o'rganish jadvali va ishchi guruhi
TARKIBI**

T/r	Ismi sharifi va lavozimi	Hududlarga safar muddati
1.	D.Ermatov - O'quvchilarni kasbga yo'naltirish boshqarmasi boshlig'i, ishchi guruh rahbari.	Toshkent shahar, 2023-yil 20-27-iyun
2.	G.Sa'dullayeva - O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi bo'lim boshlig'i	Qoraqalpog'iston Respublikasi, 2023-yil 20-27-iyun
3.	H.Foziljonov - O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi bo'lim boshlig'i	Andijon viloyati, 2023-yil 20-27-iyun
4.	M.Talipova - O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi metodisti	Buxoro viloyati, 2023-yil 20-27-iyun
5.	A.Mamadaliyev - O'quvchilarni kasbga yo'naltirish boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari	Jizzax viloyati, 2023-yil 20-27-iyun
6.	A.Nazarbayev - O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi sho'ba mudiri	Qashqadaryo viloyati, 2023-yil 20-27-iyun
7.	S.Axmedov - O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi metodisti	Navoiy viloyati, 2023-yil 20-27-iyun
8.	Sh.Giyasov - "Barkamol avlod" respublika bolalar maktabi direktor o'rinbosari	Namangan viloyati, 2023-yil 20-27-iyun
9.	S.Musayev - O'quvchilarni kasbga yo'naltirish boshqarmasi yetakchi mutaxassisi	Samarqand viloyati, 2023-yil 20-27-iyun
10.	T.Xurramov - "Barkamol avlod" respublika bolalar maktabi uslubchisi	Surxondaryo viloyati, 2023-yil 20-27-iyun
11.	Sh.To'laganov - "Barkamol avlod" respublika bolalar maktabi uslubchi	Sirdaryo viloyati, 2023-yil 20-27-iyun
12.	G'.Kulnazarov - O'quvchilarni kasbga yo'naltirish boshqarmasi yetakchi mutaxassisi	Toshkent viloyati, 2023-yil 20-27-iyun
13.	D.Murodov - O'quvchilarni kasbga yo'naltirish boshqarmasi bosh mutaxassisi	Farg'ona viloyati, 2023-yil 20-27-iyun
14.	J.Djumaniyazova - "Barkamol avlod" respublika bolalar maktabi bo'limi boshlig'i	Xorazm viloyati, 2023-yil 20-27-iyun

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari faoliyatini o'rganish bo'yicha yo'riqnoma

1. Viloyat hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, hududiy maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'i (vaziri) o'rinbosari, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish sho'basini boshqaruvchi, tanlab olingan maktab direktorlari ishtirokida yig'ilish tashkil etish (yig'ilish imkoniyatdan kelib chiqib onlayn yoki oflayn shaklda tashkil etiladi).

Yig'ilishda:

o'quvchilarni kasb-hunarga o'rgatishni tashkil etish bo'yicha berilgan topshiriqlar mazmunini tushuntirish;

hokimlik tomonidan taqdim etilgan maktablar ro'yxatiga asosan o'rganish tartibini kelishib olish;

tanlab olingan maktablarda hududiy hokimlik tashabbusi bilan tashkil etiladigan kasbga o'rgatish xonalari o'quvchilarni kasbga o'rgatish majburiyatini olgan holda uch tomonlama shartnoma asosida bepul foydalanish uchun berilishi, maktab hududida yangi qurilgan kasbga o'rgatish xonalari kelgusida maktab mulki sifatida e'tirof etilishi, maktab hududi, binosi, xonalarni o'zlashtirishga yo'l qo'yilmasligini tushuntirish;

tegishli jadvallarni to'ldirish, elektron fotoalbom tayyorlash tartiblarini tushuntirish lozim.

2. Har bir maktabni joyiga chiqqan holda quyidagilarni o'rganish:

kasbga o'rgatish tashkil etiladigan maktabning umumiy holati (1-jadval);

2023-2024-o'quv yilida 10-sinflar va ulardagi o'quvchilar soni (2-jadval);

texnologiya xonalari holati (3-jadval);

texnologiya fani o'qituvchilari to'g'risida ma'lumot olish (4-jadval);

informatika va axborot texnologiyalari fani xonalari holati (5-jadval);

informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilari to'g'risida ma'lumot olish (6-jadval);

maktabda o'quvchilarni kasbga o'rgatish bo'yicha mas'ullar to'g'risida ma'lumot olish (7-jadval).

3. Elektron fotoalbom tayyorlash (sifatli fotolar bo'lishi lozim):

Albom "power point" dasturida tayyorlanib har bir suratning ostiga surat nomi yoziladi.

maktabning asosiy kirish qismi (1-foto), maktab peshlavhasi (2-foto);

informatika xonasi umumiy ko'rinishi holati, agar xonalar soni 1 tadan ko'p bo'lsa har bir xona rasmi alohida taqdim etiladi (3-foto);

texnologiya xonasi umumiy ko'rinishi holati, agar xonalar soni 1 tadan ko'p bo'lsa har bir xona rasmi alohida taqdim etiladi (4-foto);

4. Har bir tuman (shahar)dan tanlab olingan maktablarning manzilli ro'yxati viloyat hokimi tomonidan tasdiqlanib, ishchi guruh rahbariga taqdim etiladi.

5. Jadvallarni, albomni Respublika ishchi guruhiga taqdim etilib, ma'lumotlar Respublika ishchi guruhi rahbari bilan to'liq kelishilgandan so'ng xizmat safarini yakunlaydi.